



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



KORPUS LINGVISTIKASINING DINIY MATNLARDAGI O‘RNI THE ROLE OF CORPUS LINGUISTICS IN RELIGIOUS TEXTS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/BKYD8436

Tursunboyeva Fayiza Abdurahmat qizi
Alisher Navoi Toshkent State University
of the Uzbek Language and literature,
Tashkent, Uzbekistan,
fayizatursunboyeva@gmail.com
ORCID: 0009-0003-4266-0541

Annotatsiya. Mazkur maqola bugungi kunda diniy matnlarni o‘qib tushunish jarayonida izohtalab leksik birliklarni tushunishda zarur bo‘lgan elektron tizimlarning ahamiyati va vazifasi KL bilan bog‘langan holda yoritilgan. O‘quvchi diniy matnlarni teran anglashi va tushunishi uchun ulardagi arabcha leksik birliklarni, xususan, asosan, diniy matnlarda qo‘llaniladigan istilohlarning semantikasini bilishlari zarur hisoblanadi. Maqolada bu muammoga interkativ yechim taqdim qilingan. Shuningdek, unda diniy matnlarni o‘qib tushunishda yuzaga kelayotgan semantik muammolar va ularning ahamiyati “Ta’vilotul-Qur’on” asarining 30-juzidan olingan parcha misolida yoritilgan bo‘lib, teologik matnlardagi izohtalab so‘zlarni semantik tavsiflash uchun takliflar ham qayd etilgan. Diniy matnlar korpusi ishlab chiqishning zarurati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, diniy matnlar, islom, hadis korpusi, lug‘at.

Annotation. The importance and function of electronic systems necessary for understanding lexical units in the process of reading and understanding religious texts are highlighted in connection with KL. In order to read and understand religious texts, it is necessary to know the Arabic lexical units used in them, especially the semantics of the terms used in religious texts. The article presents an interactive solution to this problem. It also highlights the semantic problems that arise when reading and understanding religious texts and their significance, using examples from the 30th volume of the work ‘Ta’vilotul-Qur’on’. and suggestions are made for the semantic description of ambiguous words in theological texts. The necessity of developing a corpus of religious texts is analysed.

Keywords: Computational linguistics, corpus linguistics, religious texts, Islam, hadith corpus, dictionary.

Zamonaviy kompyuterlar ishlab chiqarila boshlangan davrdan beri eng raqamlashgan gumanitar soha bu – kompyuter lingvistikasidir [Jensen, 2019: 115]. Mazkur jarayon yurtimizda boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan kechroq boshlangan bo‘lsa-da, bugun ushbu sohaning rivojlanishiga e‘tibor



kuchayotganligi hech kimga sir emas. Korpus lingvistikasi (KL) tilga doir tadqiqotlarning, xususan, kompyuter lingvistikasining eng muhim qismiga aylanib borayotganligi bu jarayonni yanada jadallastirmoqda [Lei, 2013: 503].

Umuman olganda KL nutq bilan chambarchas bog‘liq sohadir, ammo bugun KLning tilshunoslikdan boshqa sohalarga kirib kelayotganligi rivojlanishning keyingi pog‘onaga ko‘tarilganini bildiradi [Dayrell, 2020: 97]. Shu o‘rinda, bugun KL bir qancha sohalar, jumladan, xorijiy tillarni o‘rgatish [Farr, 2023: 1181], ergonomik lingvistika [Condamines, 2021: 18], klinik psixologiya [Collins, 2023: 28], pedagogika [Gilquin, 2022: 109], yuridik sohalar [Vogel, 2018: 1340] kabi barcha sohalar bilan bog‘liqlik hosil qilmoqda. Bu jarayon sohalarning raqamlashishi, tadqiqotlar va ta‘limning qulay va samarali bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Ta‘kidlash joizki, KL turli dinlarga doir tadqiqotlar va ta‘limni ham o‘z ichiga olib ulgurdi [Karimah, 2025: 23]. Korpus lingvistikasi islom, xristian, hindu dinlari bilan ham integratsiya hosil qilmoqda [Nandan, 2025: 2]. Bu jarayon esa diniy manbalar va matnlarning tadqiq qilish potensialini oshirib, insonlarning o‘zlari e‘tiqod qiladigan dinlarini chuqurroq va teranroq tushinishi, noto‘g‘ri tushunchalarni kamaytirishi, nomaqbul oqimlar ta‘siriga tushib qolish holatlarini kamaytiradi.

Qo‘shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, din nafaqat tilning, balki shu jamiyatning ma‘naviy shakllanishida ham muhim ro‘l o‘ynaydi [Nandan, 2025: 3]. Islom dini o‘zbek xalqining ma‘naviy-ma‘rifiy shakllanish jarayonida yadro vazifasini bajargan bo‘lib, yurtimizda mavjud aholining 88 foizi [Oxford Reference, saytga murojaat vaqti: 10.03.2025, 11:37] aynan shu dinga e‘tiqod qiladi. Shu sababdan ham islom diniga doir diniy matnlar tadqiqotining ahamiyati bugun yuqorilab bormoqda. Bugun islomiy lug‘atlarga ehtiyoji katta bo‘lib, diniy mabalarni endi o‘qiyotgan kitobxon manba saralash, ishonchli va to‘g‘ri aqiydaga asoslangan lug‘at va kitoblardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishi va oqibatida turli radikal oqimlarga qo‘shilib qolish ehtimoli yo‘q emas. Shu sababdan ham bugun KL ning rakursi yurtimizda ham kengaytirilishi lozim. Tadqiqotlarga ko‘ra, ayni zamondagi texnika taraqqiyotida til va din o‘rtasidagi nozik munosabatni anglash uchun korpus lingvistikasi eng zamonaviy va qulay yechim bo‘la oladi [Pihlaja, 2024: 323].

Islom dini korpus lingvistika doirasida keng o‘rganilmagan bo‘lsa-da, ammo sezilarli ta‘sirga ega tadqiqotlar mavjud. Masalan, AmnaBinte Kamran, Bushra Abro, Amna Basharat kabi tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida semantik hadislar korpusi va unga doir tadqiqotlarni yoritib, islomiy matnlar va Islom dinining Qur‘oni karimdan keyingi ikkinchi asosiy manbasi – hadisning korpus lingvistikasidagi o‘rni haqida o‘z ilmiy natijalarini taqdim qilgan [Amna, 2023: 2]. Hadislarni o‘rganishda raqamli bazalarning ko‘payishi, uning kompyuter lingvistikasiga kirib kelishi islom lug‘atshunosligi tadqiqotlari uchun manba bo‘la oladi.

Hadis va unga doir adabiyotlarni o‘qitishda tabiiy tillarni qayta ishlash (NLP) va kompyuter lingvistikasidan foydalangan holda ta‘lim olib borishda KLning



samarali metodlarini e'tirof qilgan tadqiqotchilar Aqil M. Azmi, Abdulaziz O. Al-Qabbany, Amir Hussainning tadqiqotlariga ko'ra, KL islomni o'qitishning an'anaviy va zamonaviy metodlariga juda mos keladi. Korpus lingvistikasida hadislarni o'rganish, o'rgatish va foydalanishda juda muhim bo'lgan sanad va matnni ajratib olish oson va qulayligini ta'kidlaydi [Aqil, 2019: 2]. Bu esa diniy matnlar tadqiqotining globallasuvi uchun muhim hisoblanadi.

Hadis korpusiga asoslangan holda ontologik tadqiqot olib borgan Noor Zytoon binti Mohamad Ismail, Norzulaili binti Mohd Ghazali, Siti Fatimah binti Mohd Tawil hadis korpuslari va ontologiya orasidagi bog'liqlikni o'rganib, diniy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish uchun tadqiqot natijalarini ulashgan [Noor, 2023: 116]. Mualliflarning tadqiqoti turli yillarda nashr etilgan 15 ta nashrni qamrab olib, "zikir va duolar", "tibbun nabaviy"ga doir islomiy adabiyotlarning tizimli tahlili va ontologiyasini shakllantirishni ko'rsatib bera olgan. Bu esa islomiy adabiyotlarning korpus lingvistikasi bilan integratsiya bo'layotganligini va tibbiyotda ham kesishayotganini ifodalaydi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugun korpus lingvistikasi bilan islomning integratsiyalashuvi turli yangi sohalarining vujudga kelishiga, shuningdek, dinlarning ham kengroq rakursdan o'rganilishiga raqamli yechim bo'la oladi.

Shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli davr adabiyotlar mutolaasida ham muhim joy egallayotganligi hech kimga sir emas. Ma'lumki, diniy matnlarning katta qismini o'zbek tiliga o'zlashmagan arabcha so'zlar tashkil etadi. Mana shu holat amaliy lingvistikaning vazifasini o'rinli tarzda ko'rsatib beradi. Fikr yanada tushunarli bo'lishi uchun "Ta'vilotul Qur'on" dan olingan quyidagi diniy matnda uchraydigan semantik izohtalab so'zlarga murojaat qilib, masalaning mohiyatini tahlil qilamiz:

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

"Men Rosululloh solallohu alayhi vasallamning ortlarida turib namoz o'qiganman. Abu Bakr, Umar va Usmon roziyallohu anhumning ortida turib ham namoz o'qiganman. Ular "Bismillaahir rohmaanir rohiym"ni jahriy aytmas edilar." [Moturidiy, 2022: 35].

Quyidagi so'zlarni ushbu diniy kontekstdagi semantik izohtalab so'zlar sifatida ajratib olamiz: *ibn; roziyallohu anhu; solallohu alayhi vasallam; roziyallohu anhum; Bismillaahir rohmaanir rohiym; jahriy.*

Mazkur so'zlar diniy bilimga ega bo'lmagan yoki bu borada yetarlicha tushunchaga, tajribaga ega bo'lmagan kitobxonlarga matnni tushunishda qiyinchilik tug'diradi. Matndagi aksar so'zlar, xususan, "*solallohu alayhi vasallam*", "*roziyallohu anhu(m)*", "*ibn*" kabi so'zlar teologik matnlarda juda ko'p uchragani uchun ularning ma'nosini tushunish "*jahriy*" so'ziga nisbatan murakkab emasligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Iqtibosda uchragan va o'zlashmagan arabcha so'zlarga kelsak, diniy bilimga ega bo'lmagan kitobxon bu so'zlar tufayli mutolaa qilayotgan asosiy matnni to'liq tushunib yetmasligi bir muammo bo'lsa, bu kabi so'zlarni anglab yetish uchun

**SEMANTIK IZOHTALAB
SO'ZLARNING TASVIRIY IFODASI**

| Semantik izohtalab so'zlar | Izohlar |
|--------------------------------|--|
| ibn | o'g'li Ibn Malik – Malikning o'g'li |
| su-alla-hu-u-ya-si-va-ud-du-ku | Allah ushbu yaradgan, ta'lim beradi bolalar (yolg'iz o'qituvchi)ni o'qitishda ilganda ta'limni ta'limda o'qitishga o'qitadi. |
| Roziyalohu anhu | Allah ushbu rozil bo'ldi (bir sahabe)ning ham sharti bo'lgan sunnat yuzasidan aytilgan gap dard. |
| Roziyalohu anhum | Allah ushbu rozil bo'ldi (bir sahabe)ning ham sharti bo'lgan sunnat yuzasidan aytilgan gap dard. |
| iboralar ro'yxatini ro'yxat | Muhobir, rahbari Akhbari iboralar |
| Jahriy | Dinlar, o'qim, uning o'qim |

elektron lug'atlarning yetishmovchiligi ikkinchi muammodir. Qidiruv tizimlari, sun'iy intellektdan foydalanish esa har doim ham samarali natija beravemaydi. Buning sababi esa elektron lug'atlar bazasi yetarli emasligidadir. Shuningdek, o'quvchi manba tanlashda ham qiyinchilik va tushunmovchiliklarga duch kelishi, tabiiy.

Shu o'rinda barcha islomiy terminlar mujassamlashgan elektron manbalar mavjud emasligini ta'kidlash o'tish joiz. Mavjud mobil ilova esa arabiy istilohlarning faqatgina muayyan qismini qamrab olganini va izohtalab islomiy terminlarning hammasi ham kiritilmaganligi ma'lum bo'ldi. [Islom lug'ati va ensiklopediyasi, murojaat vaqti: 25.04.25]. Qidiruv tizimlari orqali esa islom.uz saytida keltirilgan qisqa "Kundalik muomaladagi islomiy so'z va iboralar jadvali" chiqib keldi [Islom.uz, Saytga murojaat vaqti: 28.04.25]. Shuningdek, qidiruvda asosan talaba va tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan darsliklarning raqamli nusxalari, qisqa lug'atlar topildi.

Semantik izohtalab so'zlarni aniqlab, tavsiflashdan asosiy maqsad bugungi kun o'quvchilarining shu doiradagi so'z boyligi, saviyasi yetishmasligini ko'rsatishdir. Bu boradagi muammoning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy sabablari bor. Bugungi kunda yosh avlodning o'zbek tilidagi diniy-ma'rifiy adabiyotni tushunishdagi muammolaridan biri ona tilimizga o'zlashgan so'zlarni tushunishdagi qiyinchilikdir. Mustabid tuzum davrida ona tilidan, teologik adabiyotdan uzoqlashib ketilgani oqibatida diniy-ma'rifiy adabiyotni o'qib, tushunishdagi muammolar yuzaga kelgan. Bu muammoni bartaraf qilish yo'lida katta xizmatlar qilgan olim, xalqimizning atoqli farzandi, shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlari "Biz o'quvchining saviyasi past deb, uning darajasiga tushishimiz shart emas, balki biroz yuqoriroq yozib, o'sha saviyani ko'tarishimiz kerak", deganlar. Buning ma'nosi shuki, diniy adabiyotda semantik izohtalab so'zlardan voz kechish emas, balki ularni zarur o'rinlarda sharhlab, izohlab, kitobxonlarning saviyasini bosqichma-bosqich oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

Shu maqsaddagi vaqtinchalik yechim sifatida KL bilan amaliy bog'liqlik hosil qilgan holda diniy matnlar korpusini ishlab chiqish tavsiya qilinadi. Va quyidagicha semantik birliklarni diniy matnlar korpusida taqdim etiladigan izoh sifatida taklif qilinadi:

1 "Ibn" – o'g'li (Ibn Molik – Molikning o'g'li)

2 "Solallohu alayhi vasallam" – Alloh u zotni yorlaqasin, salotu salomi bo'lsin (Payg'ambarimizning ismi shariflari kelganda hurmat yuzasidan aytiladigan duo)

3 "Roziyallohu anhu" – Alloh undan rozi bo'lsin (bir sahobaning ismi sharifi kelganda hurmat yuzasidan aytiladigan duo)

4 "Roziyallohu anhum" – Alloh ulardan rozi bo'lsin (bir necha sahobalarning ismi sharifi kelganda ularga hurmat yuzasidan aytiladigan duo)

5 "Bismillaahir rohmaanir rohiym" – Mehribon, rahmli Alloh nomi bilan.

6 "Jahriy" - oshkora, ochiq, ovoz chiqarib

Har bir davrning leksik birliklari boshqa davrning leksikasidan katta farq qilishi mumkin. Shu sababdan, bugungi kundagi diniy-ma'rifiy matnlardagi, ularning tarjima va izohlaridagi ba'zi lug'aviy birliklar zamondosh kitobxonlarning aksar qismi uchun yot so'zlar bo'lishi, kitobxonlarda diniy leksik bilimlar yetishmasligini hisobga olib, bu holat tadqiq etilishi lozimligini ta'kidlash lozim. Diniy matnlar korpusini ishlab chiqish va semantik tavsiflashning ahamiyati shu o'rinda yanada yaqqol seziladi.

Azizxo'ja Inoyatov hamda G'ani Zikrillayevlar tomonidan chop qilingan "Qur'oni Karim oyatlari mazmun-ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimasi" asarining muqaddima qismida tarjimonlar bir nechta tafsir tarjimalariga yuzlanganini qayd etib, shunday deyishgan: "Ustoz Muhammad Sodiq Muhammad Yusufdek bilimdon olim ham «ba'zi holatlarda o'zbek tili qoidalariga rioya qilmaslikka majbur bo'ldik» deya e'tirof etganliklarining o'zi semantik tavsiflashning zaruriyatini qo'llab-quvvatlaydi [Qur'oni karim oyatlari mazmun ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimasi 2024: 7].

Yanada tushunarli bo'lishi uchun diniy matnlar korpusida teologik leksik birliklar quyidagicha nazariy, taxminiy tasviriy ko'rinishini taqdim qilamiz:





Xulosa o'rnida, yurtimizda rivojlanib borayotgan korpus lingvistikasida xalqimizning asosiy ma'rifiy ozuqa manbai hisoblangan diniy matnlar korpusining ahamiyati to'rtinchi sanoat inqilobi davrida yanada ortayotganligini yuqoridagi qisqa va lo'nda tahlillar orqali qayd etib o'tdik. Aholi savodxonligini oshirish bilan birga ulamolar ilmiy ijodiga halal qilmagan holda omma uchun mos ravishda diniy leksik birliklar uchun semantik izohlar bazasini to'plash va shu asosda korpus lingvistikasini rivojlantirish zaruriyatini ham xulosa qilib olish zarur. Shuningdek, o'quvchi savodxonligi va saviyasini oshirishda elektron lug'atlar bazasini ham shakllantirish zaruriyati tahlil etildi. Mazkur maqolada ma'lum bir ixtisoslikdagi manbalarni o'rganish va o'rgatishda korpusning ahamiyati, KL bilan integratsiya nechog'lik zarur ekanligi ochib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jensen K. E. Linguistics in the digital humanities: (computational) corpus linguistics. *MedieKultur: Journal of media and communication research* (2014).
2. Lei Lei. (2013). Exploring Corpus Linguistics: Language in Action. *ELT Journal*, Volume 67, Issue 4, October 2013, Pages 503–505.
3. Dayrell, Carmen & Chakravarthi, Ram-Prasad & Griffith-Dickson, Gwen. (2020). Bringing Corpus Linguistics into Religious Studies: Self-representation amongst various immigrant communities with religious identity. *Journal of Corpora and Discourse Studies*. 3. 96. 10.18573/jcads.27.
4. Farr F., Leńko-Szymańska A. Corpora in English Language Teacher Education: Research, Integration, and Resources. *TESOL Quarterly* (2023).
5. Condamines A. , Towards an ergonomic linguistics: Application to the design of controlled natural languages. *International Journal of Applied Linguistics (United Kingdom)* (2021).
6. Collins L., Brezina V., Woods A. Corpus linguistics and clinical psychology. *International Journal of Corpus Linguistics* (2023), 10.1075/ijcl.21019.co.
7. Gilquin G. Cognitive corpus linguistics and pedagogy. *Pedagogical Linguistics* (2022).
8. Vogel F., Hamann H., Gauer I. Computer-Assisted Legal Linguistics: Corpus Analysis as a New Tool for Legal Studies. *Law and Social Inquiry* (2018).
9. Karimah, Lina & Yurianto, Ramdhan & Aliah, Mujahidatul & Putri, Dellira. (2025). Utilizing Platform Quranic Arabic Corpus For Arabic Linguistic Education Based Quranic Grammar. *Al-Manar*. 16. 10.24014/al-manar.v16i1.32012.
10. Nandan, Mahit et al. "Comparative Analysis of Religious Texts: NLP Approaches to the Bible, Quran, and Bhagavad Gita." *COLING Workshops* (2025).
11. Nandan, Mahit et al. "Comparative Analysis of Religious Texts: NLP Approaches to the Bible, Quran, and Bhagavad Gita." *COLING Workshops* (2025).
12. [Islam in Uzbekistan - Oxford Reference](#) [saytga murojaat vaqti: 10.03.2025, 11:37]



13. Pihlaja, Stephen. (2024). Corpus Linguistics and Language and Religion. 10.1016/B978-0-323-95504-1.00473-7.
14. Amna Binte Kamran, Bushra Abro, Amna Basharat. Semantic Hadith: Anontology-driven knowledge graph for the hadith corpus. WebSemantics: Science, Servicesand Agent sonthe WorldWideWe. 2023.
15. Aqil M. Azmi, Abdulaziz O. Al-Qabbany, Amir Hussain. Computational andnatural languageprocessing based studies of hadith literature: a survey. Springer Nature B.V. 2019.
16. Noor Zytoon binti Mohamad Ismail¹, Norzulaili binti Mohd Ghazali², Siti Fatimah binti Mohd Tawil. SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW ON THE ONTOLOGY REPRESENTATION RELATED THE HADITH CORPUS. Journal of hadith studies, VOL 8. NO. 2(SI) (Nov 2023) (Special Issue), 2023.
17. Abu Mansur Moturidiy, Ta ‘vilot al Qur ‘on, 30-juz. 35b. Toshkent, 2022.
18. <https://google-play-services-updater.en.aptoide.com/app> (Murojaat vaqti: 25.04.25).
19. <https://islom.uz/maqola/3443> (Saytga murojaat vaqti: 28.04.25).
20. Qur’oni karim oyatlari mazmun ma’nosining o‘zbekcha izohli tarjimasi, 7b. Toshkent, 2024.



MUNDARIJA

| | | |
|--|--|----|
| <i>Sirojiddinov Shuhrat</i> | O'zbek tili – xalqaro maydonda! | |
| I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI | | |
| <i>Ashirboyev Samixon</i> | O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida | 6 |
| <i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i> | O'zbek tilida kognitiv metonimiya | 11 |
| <i>Juraqobilova Xamida</i> | She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri | 17 |
| <i>Mustafayev Fizuli</i> | Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında | 24 |
| <i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i> | O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni | 32 |
| <i>Turdiboyev Tohir</i> | Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar | 37 |
| <i>Abjalova Manzura</i> | Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar | 42 |
| <i>Sheronov Boyirboy</i> | Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida | 50 |
| <i>Madjidova Dilorom</i> | Современные методы и проблемы прикладного языкознания | 54 |
| <i>Tolipova Dildora</i> | Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода | 59 |
| <i>Elova Dilrabo</i> | O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar | 67 |
| <i>Abdullayev Jumanazar</i> | Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati | 73 |
| <i>Israilova Saodat</i> | Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi | 84 |
| <i>Kasimova Ziyoda</i> | Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili | 88 |
| <i>Baxodirova Shaxlo</i> | Lakuna va realiya munosabati | 92 |



| | | |
|---|--|-----|
| <i>Hakimov Dilshod</i> | “Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil | 98 |
| <i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i> | O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari | 107 |
| <i>Allaquliyeva Qunduz</i> | Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi | 113 |
| <i>Isoqulova Qunduz</i> | So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi | 117 |
| <i>Ismayilli Ayshen</i> | Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə | 122 |
| <i>Davronova Zarnigor</i> | Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili | 132 |
| <i>Muzaffarova Zarrina</i> | Metonimiyaning konseptual modellari | 136 |
| <i>Yusupova Aziza</i> | Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi | 140 |
| <i>Mamarasulova Maftuna</i> | Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari | 146 |
| <i>Abdurasulova Dilnoza</i> | Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari | 151 |
| <i>Soqiyeva Shirin</i> | Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni | 157 |
| <i>Abruyeva Zaxro</i> | O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi | 160 |
| <i>Bovmanova Bashorat</i> | O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi | 164 |
| <i>Jumaniyozova Charos</i> | Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati | 168 |
| <i>Xayrullayeva Ra’no</i> | Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati | 172 |
| <i>Tursunova Sojidxon</i> | “Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili | 177 |



| | | |
|--------------------------------|--|-----|
| <i>Utegenova O'g'iloy</i> | Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar | 181 |
| <i>Maxmudova Matluba</i> | Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar | 185 |
| <i>Xolmamatova Sarvinozxon</i> | Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari | 191 |
| <i>Turg'unboyeva Dilnoza</i> | Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni | 199 |
| <i>O'ralova Nargiza</i> | Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi | 204 |
| <i>Jabborova Aziza</i> | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili | 209 |
| <i>Odilova Dilobar</i> | Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi | 214 |
| <i>Nazarov Qobilbek</i> | Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi | 218 |
| <i>Mullaboyeva Shirin</i> | Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi | 226 |
| <i>G'aybullayev Erkinjon</i> | O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida | 230 |
| <i>Oripova Mavluda</i> | Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik | 240 |
| <i>Otaxonova Sohiba</i> | Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni | 245 |
| <i>Shodmonaliyeva Yulduz</i> | Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati | 250 |
| <i>Sobirova Maftuna</i> | Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni | 256 |
| <i>Umarova Shahzoda</i> | O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni | 260 |
| <i>Turg'unova Maftuna</i> | Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni | 270 |
| <i>Muratova Nafisa</i> | Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik | 274 |



| | | |
|--|--|-----|
| | vositalarning o'rni | |
| <i>Murotov Hamro</i> | Reklama matnlarining tasnifi | 280 |
| <i>Normuminov Laziz</i> | Qo'chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi | 285 |
| II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI. | | |
| <i>Xolmanova Zulxumor</i> | Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi | 289 |
| <i>Qurbonova Munavvara</i> | Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni | 297 |
| <i>Ruzibayeva Nigoraxon</i> | Psychological needs in the language classroom | 303 |
| <i>Abdurahmonova Muqaddas</i> | Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике | 308 |
| <i>Umurzoqova Marhabo</i> | Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida | 317 |
| <i>Abjalova Manzura</i> | O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim | 321 |
| <i>Ruzmetova Novval</i> | Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов | 326 |
| <i>G'ulomova Nargiza</i> | Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi | 335 |
| <i>Dedaxanova Muazzam</i> | Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi | 344 |
| <i>Shamsiyeva Manzura</i> | Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari | 347 |
| <i>Xudaykulova Shaxnoza</i> | O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi | 353 |
| <i>Ibragimova Sayyora</i> | Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности | 357 |
| <i>Tilyabayev Kamil</i> | Благодарные: из эмоционального опыта | 361 |



| | | |
|-----------------------------|--|-----|
| | изучения узбекского языка как второго | |
| <i>Alimardanov Elyor</i> | Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari | 369 |
| <i>Bozorova Sabohat</i> | Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari | 372 |
| <i>Abduvoxidova Mavzuna</i> | Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода | 377 |
| <i>Mamadayupova Vasila</i> | Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi | 381 |
| <i>Azizova Feruza</i> | Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi | 385 |
| <i>Abdullayeva Roxila</i> | Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili | 389 |
| <i>Yusupova Shahzoda</i> | Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni | 393 |
| <i>Mamirova Xayriniso</i> | Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari | 398 |
| <i>Nabiyeva Parvina</i> | Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi | 405 |
| <i>O'rinova Zarifa</i> | Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi | 410 |
| <i>Rayimjonova Matluba</i> | Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari | 414 |
| <i>Turobova Nargiza</i> | Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya | 418 |
| <i>Abdullajonova Madina</i> | "Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi | 424 |
| <i>Pulatova Umriniso</i> | Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari | 428 |
| <i>Imomova Ismigul</i> | Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli | 435 |
| <i>Arolova Nafisa</i> | Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi | 440 |
| <i>Tursunboyeva Fayiza</i> | Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni | 443 |



| | | |
|---|---|-----|
| <i>Amrullayeva Mohinur</i> | O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari | 450 |
| <i>Mirnosirova Dilbar</i> | Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari | 454 |
| <i>Aminova Zilola</i> | Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish | 462 |
| <i>Muratova Ademi</i> | Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects | 466 |
| <i>Umurzakova Zuxraxon</i> | Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi | 472 |
| <i>Maxmudjonova Nargizaxon</i> | Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa... | 477 |
| III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI | | |
| <i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i> | O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili | 481 |
| <i>Mirzodjanova Malika</i> | Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов | 489 |
| <i>Komilova Gavharoy</i> | Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar | 484 |
| <i>Pulatova Zamira</i> | Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков | 497 |
| <i>Moldokulova Elina</i> | Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации | 501 |
| <i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i> | Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона | 505 |
| <i>Abduqodirova Zebo</i> | The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages) | 509 |



| | | |
|--|--|-----|
| <i>Otamirzayeva Sug'diyona</i> | Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology | 514 |
| <i>Sayfiyeva Komila</i> | Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi | 521 |
| <i>Madjidova Maftuna</i> | Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры | 529 |
| <i>Xasanova Sohijamol</i> | Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili | 534 |
| <i>Lafasova Mavjuda</i> | Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi | 539 |
| <i>Olimova Mushtariybonu</i> | O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili | 544 |
| IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI | | |
| <i>Akalin Ahmet</i> | <i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i> | 549 |
| <i>Rahmonqulov Abdunazar</i> | O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida | 555 |
| <i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i> | Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка | 559 |
| <i>Xakimova Mavzunadjon</i> | Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках | 563 |
| <i>Musurmankulova Shaxribon</i> | Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili | 569 |
| <i>Xodjayeva Mashhura</i> | Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам | 576 |
| <i>Erkaboyeva Havojon</i> | Translation studies and the internationalization of the uzbek language | 581 |



| | | |
|---|---|-----|
| <i>Axmedova Niluzar</i> | Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida | 584 |
| V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI | | |
| <i>Seyhan Tanju</i> | Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri | 589 |
| <i>Abdushukurov Baxtiyor</i> | O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni | 604 |
| <i>Rahimi Farhad</i> | Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine | 611 |
| <i>Jafarzade Vahide</i> | Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər | 640 |
| <i>Muhammadiyahva Dilafro 'z</i> | "Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari | 650 |
| <i>Bo'ronov Anvar</i> | Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida | 657 |
| <i>Xo'janiyazova Shahnoza</i> | Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari | 665 |
| <i>Xolmurodova Mushtariy</i> | "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili | 670 |
| <i>Mirzayeva Ulker</i> | Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili | 676 |
| <i>Babazade Rahshane</i> | Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər | 684 |
| <i>Yodgorov Hamid</i> | "Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi | 697 |
| <i>O'razova Iqbol</i> | Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida | 701 |
| <i>Azizzade Turkan</i> | R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında | 705 |
| <i>Saygin Muhterem</i> | Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, | 711 |



| | | |
|---------------------------------|--|-----|
| | Görge Bay) | |
| <i>Hamishog'lu Meryem</i> | Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları | 718 |
| <i>Bakirov Qudratillo</i> | Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi | 734 |
| <i>Sattorova Shahnoza</i> | O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili | 739 |
| <i>Maqsudova Feruza</i> | Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida | 745 |
| <i>Azizova Nilufar</i> | “Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar | 750 |
| <i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i> | Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari | 756 |
| <i>Siddiqova Naimaxon</i> | Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari | 760 |
| <i>Qasimova Sema</i> | “Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili | 766 |
| <i>Turdiyeva Roza</i> | O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari | 774 |